

DAVR TALABI ASOSIDA VA KASBIY MAHORATNI YUKSALTIRISHDA HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN - TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI

Nozbuvi Boychaeva,
JDPI, Musiqa Madaniyati fakulteti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola barkamol avlodlarni davr talabi asosida ta'lim berib, tarbiyalashda, Prezidentimizning ilm-fan, adabiyot va san'atning barcha turlari bo'yicha teran bilim va iqtidorlarini shakllantirishga oid masalarini hayotga tadbiq etishdek oliy maqsadlarga qaratilgan. Barcha o'zbek ziyolilarga vazifa va burch sifatida yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli va oqilona foydalanishni burch va vazifa sifatida anglash, amalda nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, puxta bilim ilmiy salohiyatni takomillashtirishga jiddiy e'tiborni qaratishdek muhim masalalarni, bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarining ongiga singdirish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: har bir fan yuzasidan davr talablariga jiddiy e'tibor bilan javob berish va kasbiy nuqtaiy nazardan unga erishishda, ilm-fan, adabiyot va san'atning barcha turlariga mutaxassis sifatida ilmi, salohiyatli, mutaxassis bo'lishga erishish.

2016-2021-yillar davomida Mamlakatimiz taraqqiyotida, barcha jabhalarda yoshlar ongida, psixologik jihatdan, teran anglangan munosabatda, qatt'iyatlik va komillik ruhida o'zgarishlar bo'ldi. "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" bo'ladigan islohatlar, Yetti ustivor yo'nalishdan iborat bo'lib,

5-yo'nalish "Ma'naviy va ma'rifiy sohalarda islohatlarni amalga oshirish" maqsad qilib qo'yilgandir. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda;

-milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish;

masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu borada ayniqsa, musiqa san'atining turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlayotgan Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligiga qarashli universitet va institutlar, hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni, musiqa san'atining turlari bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilariga o'ziga xos teran bilimni "Madaniyat va San'at" turlarini yuksaltirishdek ma'sullikni va komillikni vazifa qilib yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021- yilda qayta lavozimga kirishish tantanali marosimdagi “Yangi O‘zbekiston - adolatli jamiyat, yangi hayot” mavzusidagi ma’ruzasi eng avvalo “INSON QADRI UChUN” degan ustuvor tamoyilning bosh mezon bo‘lib qolishi bayon etildi. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”- Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning yoshlarga qaratilgan ushbu so‘zlari barcha yoshlarimizga qaratilgan masala bo‘lib, ularni ajdodlariga xos mard, jasur, teran aql idrokli shaxs bo‘lib, shakllanishlarida ma’sullikka yetaklovchi dasturilamaldir.

Barkamol avlodlarni ta’lim berib tarbiyalashda ularning ongiga ma’sullikni singdirish va ularni komillik ruhida tarbiyalash dolzarb masaladir. Yoshlarni buyuk ajdodlariga xos ma’naviyatli, ma’rifatli, madaniyatli insonlar etib, shakllantirishning juda ko‘p vositalari va omillari mavjud. Biroq yosh avlodlarni zamon talabiga mos kuchli bilimli, teran aql idrokli, salohiyatli, iqtidorli shaxs sifatlarni rivojlantirishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarini barcha fanlarga tadbiq etib, barkamol avlodlar ongiga singdirish muhim masaladir. Bu borada-shunday ta’kidlangan, hamda e’tirof etilgan; ”Insoning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz yetishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib kelgan. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan uch ming uch yuz yil ilgari suyakdan yasalgan nay cholg‘usining topilgani ham shundan dalolat beradi. Musiqa sadolari qaysi xalq va millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”-deya ta’kidlaganlar. (“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” “Ma’naviyat” Toshkent. 2008-yil. 140-b.

Har tomonlama yetuk ijodiy shaxsni shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammosidir. Musiqa san’ati shunday kuchga egaki, u barcha musiqa san’ati turlari olamiga beqiyos ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy, madaniy va mafkuraviy qudratga ega bo‘lgan milliy tarbiya vositasidir. Musiqa san’ati eng nafis tuyg‘ularni inson ongiga va ruhiyatiga teran ta’sir etishda, aql idrok hamda ongu shuuriga kuchli ta’sir etuvchi vositadir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qadimiy qadriyatlarimizni o‘rganish va hayotga tadbiq etish, ajdodlar merosini tubdan tahlil qilish, tarixiy boy

madaniyatimizni ma'naviy olamimizni, yuksaltirish, eng muhim vazifa etib qabul qilindi.

Jumladan musiqa san'atining tarixiy bosqichlarini, uning turlarini, ma'naviy meros sifatida avaylab asrash, tiklash, borasida, aynan zamon bilan hamohang ilmiy ijodiy ishlar amalga oshirilmoqda. "Harakatlar strategiyasidan - Tarqqiyot strategiyasi sari" Yetti bosqichdan iborat dasturilamalni hayotga tadbiiq etishdek ma'sullik barcha o'zbek ziyolilari uchun barcha sohani rivojlantirish va takomillashtirishda qatt'iyatlik bilan kasbiy bilimlarni yanada oshirishni vazifa va burch deb, - anglamoqlikni taqozo etadi. Taraqqiyot strategiyasining ijrosini ta'minlash munosabati bilan kun sayin mamlakatimizda innavatsion rivojlanish jarayoni jadal amalga oshirilmoqda.

-bu borada 2016-2021 yillarda amalga oshirilgan ishlarning qat'iyatlik bilan olib borilayotganligi ;

-“Yangi O‘zbekistonni - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi;

-barcha ta’lim muassasalarida, yosh avlodlarga bog‘cha, maktab va oliygohlarda sifatli ta’lim -tarbiya berish yo‘lga qo‘yilayotganligi;

-rahbar xodimlarning ma’suliyati kun sayin oshayotganligi bunga misoldir.

O‘zbek mumtoz va musiqa san'atining turlari, opera san'ati, akademik ijro, zamonaviy estrada, an'anaviy ijro, noyob na'munalarini, ularning o'ziga xos ijro maktablarini hamda an'alarini asrab avaylash va takomillashtirishdagi ilmiy ijodiy ishlarning davomiyligi bunga misoldir.

O‘zbek milliy maqom san'ati ilmiy-amaliy markazi va maqom muzeyining Shahrizabz shahrida tashkil etilganligi, har ikki yilda bir marta “Xalqaro maqom san'ati festivali o'tkazilishining yo'lga qo'yilishi bunga yorqin misoldir. Aniq muddatda amalga oshirilgan bunday ishlarni rivojlantirish yo'nalishini yuzaga keltirdi. O‘zbekiston Respublikasining” 2019-2021-yillarda milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” madaniyat sohasini amalga oshirilayotgan ishlarning kompleks dasturi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, konsepsiya natijasida 2021-yildan boshlab, uni navbatdagi “Yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda “O‘zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi P.Q.№33-91–sonli qarorining qabul qilinishi milliy madaniyatimizni yanada rivojlantirish uchun zamin yaratdi. ”Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi

bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslublari va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi.” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr “Milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi P.Q. №33-91-sonli qarori.)

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlaydi; Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega bo‘lgan... bizning eng katta boyligimiz, bu – xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir -deya ta’kidlashi barcha o‘zbek ziyolilari uchun hayotga, o‘z kasbi koriga ertangi kuniga “ochiq ko‘z”, “teran aql”, “yoniq qalb” bilan yashashga, ilmiy-ijodiy ishlarga, fidoiylik bilan kirib, yuksak muvaffaqiyatlarga erishishni taqozo etadi.

Bu salohiyatni yaratish va yanada ko‘paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilm-fan va texnika namoyondalari, birinchi navbatda, qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalarining vakillari butun vujudi bilan fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz yuksak qadrlaymiz.

Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni biz o‘zimizning birinchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor. (Shavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.“O‘zbekiston”. 2016-y 13-bet

Barkamol avlodlarga dasturilamal bo‘lgan yuqoridagi da’vatkorlik, yaratilayotgan imkoniyatlar, yoshlarni ertangi kunga ishonch ruhida yashashga, o‘qishga, ilmiy ijodiy izlanishga va yangi marralarni zabt etishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoev.” Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent. “O‘zbekiston nashriyoti”. 2016-y. 13-bet.
2. I.Karimov. ”Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.” Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent. 2008-yil.140-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019-yil 19-mart. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr Milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi P.Q.33-91-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga MUROJAATNOMASI .”O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent-2021-yil
6. Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari. 7-ustuvor yo‘nalish. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2021-y. 11- noyabr.